

HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA LEKSIK TAKRORLAR

Mohizar Ulug'bek qizi No'monova

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Hamid Olimjon she'riyatida badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanilgan. Shoir lirikasining takrorlarga boyligi, ayniqsa, leksik takrorlarning mahorat bilan qo'llanilganligi she'ning ta'sir kuchini yanada oshiradi. Hamid Olimjon she'riyatidagi badiiy takrorlar ohangdoshlikni ta'minlagan, tasvirning ifodaliligini oshirgan, mazmun va shakl uyg'unligini hosil qilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy tasvir vositalari, badiiy takror, takror, anafora, mukarrar, takrir, epifora, juft va takroriy so'zlar, epifora usuli, tovush takrori.

LEXICAL REPETITIONS IN THE POETRY OF HAMID OLIMJON

Mokhizar Ulugbek kizi Numonova

1st year master student, Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

ABSTRACT

Hamid Olimjon's poetry skillfully used visual aids. The richness of the poet's lyrics, especially the skillful use of lyrical repetitions, further enhances the impact of the poem.

Keywords: Article images, artistic repeat, repeat, anaphora, inevitable, review epiphora, double and repeated words, epiphorus method, sound repetition.

KIRISH

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan qanday tasvirlaganiga ahamiyat qaratilgan. Jumladan, she'riy asarlarda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati hamma asrlarda ijodkorning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. Ma'lumki, badiiy tasvir vositalari she'rlarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, tasirliroq ifodalanishiga, lirik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar bandlarning musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashga hizmat qilgan.

Mumtoz adabiyot tarixi yana shundan dalolat beradiki, badiiy tasvir vositalari shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning hilma-xil sa'natlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining

ko‘lami, yuksak ijtimoiy axloqiy g‘oyalarini jilolantirish san‘atkorligi ifodasi bo‘lib kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Takror – badiiy asar mualliflari tasvirlanayotgan voqea-hodisaga o‘quvchilarning diqqatini tortish, uni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun badiiy asarlarda foydalanadilar. Ohangdor, ta‘sirchan va jozibali qilish uchun ishlatiladi. Asosan, tinglovchining tushunishiga osonlik yaratadi. Takrorning barcha turlari ko‘rinishlari singari leksik takrorlar ham o‘z ifoda shakliga va tasvir usuliga ega. Badiiy matnda leksik birliklar turli shakllarda namoyon bo‘ladi va fikr talabiga ko‘ra hilma-xil vazifalarni ado etadi. Lug‘aviy birliklar badiiy tasvirning muhim vositasidir. Ammo ularning badiiy matnda qo‘llanish darajasi, badiiylikni ifodalash imkoniyatlari turli tuman.

NATIJALAR

Hamid Olimjon she‘riyatida badiiy tasvir vositalari o‘ziga xos jilolanadi. Ayniqsa, shoir she‘rlaridagi badiiy takrorlar vositasida fikr teranroq ifodalangan, she‘r g‘oyasi va shakli o‘rtasidagi mutanosiblik ta‘minlangan. Ifodalanayotgan tushunchalar takror so‘zlar vositasida obrazli qiyofa aks etgan va she‘rdagi ohangdorlik ta‘minlanishiga hizmat qilgan hamda musiqiylik o‘zgacha namoyon bo‘lgan.

Hamid Olimjon she‘riyatida ham takrorlarning go‘zal namunalarni uchratamiz. Leksik takrorlar she‘r tasirchanligini ta‘minlaydi. Bunday tasirchanlik shoir she‘rlarida **anafora, mukarrar, takrir, epifora** takrorlari vositasida namoyon bo‘lgan.

*Seni ko‘rsa ochilsin gullar,
Seni ko‘rsa yonsin bulbullar,
Seni ko‘rgan bari topsin jon,
Sen yurgan yo‘l ko‘rmasin xazon.* (I.36)

Hamid Olimjon yuqorida keltirib o‘tgan badda leksik takrorning *anafora* usulidan mohirona foydalangan. Shoir so‘zlarni takrori yoradamida lirik qahramon timsolida bahor faslini madh etgan. Chunki bahor fasli kelishi bilan gullar ochiladi, qushlar uchub keladi. Yer yuzi jonlanadi. “Seni ko‘rsa” takrori orqali shoir bahor faslini nazarda tutgan. Bahor kirib kelgan har bir qarich yerda xazonlarning o‘rnini gullar egallaydi. Takrorlarning bu turi, she‘riy misralarning boshida oxangdosh so‘zning takrorlanib kelishidir.

*Qani jangga, jangga chiqing arslonlar,
Jangga chiqing, ey aziz qahramonlar.*

(I.293)

Yuqorida keltirilgan misralarda jangchilarning jang boshlanishidan oldingi kayfiyati jangovor ruhining yuqoriligi *takrir* vositasida tasvirlangan.

Takrir arabcha "takror" soʻzidan olingan boʻlib, u sheʼriy asarda soʻzning turli shakldagi takroridan iborat. Ushbu musralarda jangga soʻzi uch oʻrinda qoʻllangan, bu esa sheʼrdagi asosiy gʻoya "jangga" soʻziga singdirilmoqchi boʻlganligini anglatadi.

*Oʻn besh kunga toʻlganida oy,
Koʻkka chiqib tunni axtardi,
Orqasidan baland osmonda
Olam-olam yulduzlar berdi.*

(I.55)

Hamid Olimjon bu sheʼrida *mukarrar* dan foydalangan. Mukarrar badiiy sanʼatlarning takror usullaridan biri boʻlib bunda takroriy soʻzning qaytarilishi kuzatiladi. Mukarrar soʻzi "qayta-qayta", "ust-ustiga" maʼnolarni ifodalaydi. Mukarrar takroriy soʻzning misra bayt yoki bandda takrorlanishidir. Maʼlumki, juft va takroriy soʻzlar alohida-alohida tushunchalardir. Juft soʻz bir turkumga oid ikki soʻzning takror qoʻllanilishi natijasida yuzaga keladi. Bunda qoʻllangan takroriy soʻz shu misraning oʻzida, bayt yoki bandda takrorlanishi mumkin. Shuningdek misra, bayt, bandda ikki xil shakldagi takroriy soʻz qoʻllanilishi ham mukarrar takrorini yuzaga keltiradi. Bunda keltirilgan "olam-olam" takrori yordamida sheʼrning mazmun mohiyati boʻrttirib koʻrsatilmoqda

*Soʻz boshlayin endi yaxshi yomondin,
Koʻzlarimning nuri boʻlgan doʻmbiram,
Sen qoʻlimda, kezib oʻtdim jahondin,
Yuragimni joʻri boʻlgan doʻmbiram.
Sendan hech bir mumkin emas sovushim,
Sen togʻlarda kezgan choriq kovushim,
Sening bilan baland boʻldi tovushim,
Bilagimning zoʻri boʻlgan doʻmbiram.*

(I.59)

Hamid Olimjon yuqorida keltirib oʻtgan sheʼri orqali takrorning *epifora* usulidan foydalangan. Epifora misralar oxiridagi tovush, soʻz yoki soʻz birikmasi takroridan iborat. Epifora qatʼiy tizimli takror boʻlib, misrada kelish oʻrniga koʻra

anaforaga ziddir. Chunki anafora misra boshidagi soʻz yoki soʻz birikmasi takrori boʻlsa, epifora misra oxiridagi til birligi takroridir. Epifora takrorning boshqa turlari singari hozirgi zamon oʻzbek sheʼriyatida keng qoʻllanilmoqda. Misralarda keltirilgan "doʻmbiram" soʻzi epifora takrorini yuzaga keltirgan, "doʻmbiram" soʻzi ham bir bandda takrorlangan Misralar oxirida yetti oʻrinda qoʻllangan. Bu esa sheʼriy misralarning oʻziga xos jozibasini taʼminlagan.

MUHOKAMA

Hamid Olimjon ishlatgan soʻzlar 20-30 - yillar voqealarning umumlashgan badiiy tasviri ekanligi shubhasizdir. Ijodkor ifodalayotgan gʻoya oʻz aksini topgan ijtimoiy - siyosiy, falsafiy - axloqiy, maʼrifiy tarbiyaviy, muommolar mohiyati va koʻlami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qoʻllangan leksik takrorning rang - barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi oʻrni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qaratilgan.

XULOSA

Hamid Olimjon oʻzbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biridir. Shoir sheʼriyati takrorlarga boyligi badiiy sanʼatlar va uslubiy vositalarning keng qoʻllanilganligi bilan ajralib turadi. Takror vositasi shoir sheʼriyatining gʻoyaviy pishiqligi, badiiy mukammalligi, oʻziga xos soʻz qoʻllay olish mahoratini namoyon qilgan. Shoir sheʼrlarida badiiy tasvir vositalarini mahorat bilan qoʻllagan, ayniqsa, badiiy takror mohirona qoʻllanilgan boʻlib, ularning semantik-stilistik xususiyatlari Hamid Olimjon ijodining oʻziga xosligini belgilaydi. Hamid Olimjon sheʼriyatidagi badiiy takrorlar ohangdoshlikni taʼminlagan. Taʼsirchanlikni oshirgan, moʻjizaviy maʼno yuklagan. Misra yoki bandlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni taminlagan, tasvirning ifodaliligini oshirgan, mazmun va shakl uygʻunligini hosil qilgan shoir sheʼrlarida takrorlar yordamida sheʼrning shakliy emas asliy maʼnosini yetkazgan.

REFERENCES

1. Hamid Olimjon. Tanlangan asarlari. – Toshkent, 1954. – B. 390.
2. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T.: “Oʻqituvchi”, 1995. – B. 61.
3. Shofqarov A.M. Oʻzbek tilida badiiy takror. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019. – B. 118.
4. Hojiahmedov A. Sheʼriy sanʼatlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – B. 160.
5. Hojiahmedov A. Sheʼr sanʼatlarini bilasizmi? – T.: Sharq, 2001. – B. 96.
6. Hojiyev A. Oʻzbek tilida qoʻshma, juft va takroriy soʻzlar. – T.: Oʻzfanakadnashr, 1963. – B. 146.